

Rossiya Federatsiyasi Prezidentiga hamdardlik



Rossiya Federatsiyasi Prezidenti

Vladimir Vladimirovich Putin Janobi Oliylariga

Hurmatli Vladimir Vladimirovich!

Fojiali voqea – Qozon shahridagi maktabda sodir bo'lgan otishma oqibatida begunoh bolalar va yoshi kattalar halok bo'lgani haqidagi xabar meni chuqur qayg'u va larzaga soldi.

Hech qanday vaj bilan oqlab bo'lmaydigan ushbu mudhish zo'ravonlik harakatini qat'iy qoralaymiz.

Sizga, qurbon bo'lganlarning ota-onalari va yaqinlariga samimiy hamdardlik izhor etaman hamda jarohat olganlar tez fursatda shifo topishlarini tilayman.

Ushbu musibatli damlarda O'zbekistonning ko'pmillatli xalqi Rossiya xalqi uchragan judolikka qayg'udoshdir.

Hurmat bilan,

Shavkat Mirziyoyev,
Prezident Respubliki Uzbekistan

Manba